

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Xojimatov	
Globalashuv sharoitida musiqiy qadriyatlarning estetik ta'sirchanligining o'zgarib borishi va qadrsizlanishi jarayoni.....	442
B.S.Sobirov	
Aktyorlik faoliyatini shakllantirishda aktyorlik san'ati xususiyatlari	448
D.A.Yuldasheva	
Yangi O'zbekiston sharoitida madaniyat va san'at sohasi rivojining takomillashuvi	451
I.I.Qirg'izov	
Nomoddiy madaniy meros tarkibiga kirgan shashmaqom janiriga aksiologik munosabatning yuksalishi	455
I.T.Yuldashev	
Jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va ahamiyati	459
L.E.Tursunova	
Yangi O'zbekistonda yoshlar estetik madaniyatini milliy musiqa tarbiyasi asosida rivojlantirish vazifalari	462
M.Achildiyeva	
O'zbek musiqa san'ati rivojining tarixiy takomil bosqichlari va yo'llari	468
N.X.Djalalova	
Musiqiy madaniyat-yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda muhim omillardan biri sifatida	473
N.R.Mansurova	
Raqamli texnologiyalar vositasida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarini rivojlantirishning texnologik asoslari	478
O.R.Soliyev	
Barokko davrida san'atning o'ziga xosligi	488
R.A.Orziboyev	
Milliy musiqamizga doir Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlari tahlili	491
R.J.Soxibov	
Naqqoshlikda kompozitsiya va uning qo'llanilishi	495
A.B.Sulaymanova	
The importance of modern innovative pedagogical technologies in teaching engineering graphics	500
U.T.Isakov	
O'zbek xalqi musiqa madaniyatining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan o'zaro aloqadorligi	503
Z.A.Boboyeva	
Yoshlarning badiiy tasavvuri va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda tasviriy san'atning o'rni.....	508
J.Sh.Muydinov	
O'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda musiqa mashg'ulotlarining ahamiyati	511
N.M.Madaminov	
Oliy ta'lim tizimida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishning ahamiyati.....	515
M.T.Yunusaliyev	
Akvarel texnikasida noan'anaviy yondashuv	518
D.Q.Oxunova, S.Sh.Hakimova	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiya va metodlari	524
D.K.Rafikova	
O'quvchilarni kasbga yo'naltrishning pedagogik zaruriyati.....	528
S.H.Mamajonov	
Amir Temur mohir strategik.....	533
D.M.Xolikova	
Talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	536
O.S.Usmonova	
1-sinf o'quvchilarini mnemotexnika yordamida chiroyli yozishga o'rgatish.....	544



UO'K: 372.878(575.1)

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA TALABALARDA MILLIY MUSIQIY MEROSNI ASRASHGA DOIR BILIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING TEXNOLOGIK ASOSLARI**ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ ПО СОХРАНЕНИЮ НАЦИОНАЛЬНОГО МУЗЫКАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ С ПОМОЩЬЮ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ****TECHNOLOGICAL BASICS OF DEVELOPING STUDENTS' KNOWLEDGE OF PRESERVING NATIONAL MUSICAL HERITAGE THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES****Mansurova Nigoraxon Rustamjonovna** 

Farg'ona davlat universiteti Vokal va cholg'u ijroshiligi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada musiqa ta'limining asosiy muammolariga, raqamli musiqaning o'ziga xos xususiyatlariga to'htalib o'tilgan bo'ib, raqamli musiqa pedagogikasining mohiyati va tamoyillarini ochib berishga qaratilgan, shuningdek, u bilan bog'liq bo'lgan o'qitish texnologiyasini tavsiflangan. Ushbu tadqiqotda zamonaviy pedagogik tamoyillar asosida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni rivojlantirish samaradorligini oshirishning zaruriy shart-sharoitlari, pedagogik asoslari haqidagi ma'lumotlar ham yoritib berilgan.

Аннотация

Данная статья посвящена основным проблемам музыкального образования, уникальным особенностям цифровой музыки, а также посвящена раскрытию сущности и принципов цифровой музыкальной педагогики, а также описываемой технологии обучения. В данном исследовании также освещены сведения о необходимых условиях и педагогических основах повышения эффективности развития знаний о сохранении национального музыкального наследия у учащихся на основе современных педагогических принципов.

Abstract

This article focuses on the main problems of music education, the unique features of digital music, and focuses on revealing the essence and principles of digital music pedagogy, as well as the teaching technology related to it. In this study, information about the necessary conditions and pedagogical foundations of increasing the effectiveness of the development of knowledge about the preservation of national musical heritage among students based on modern pedagogical principles is also highlighted.

Kalit so'zlar: raqamli musiqa, raqamli san'at, pedagogik texnologiya, pedagogik jarayon, milliy musiqiy tafakkur, milliy musiqa san'ati, musiqa pedagogikasi, maqom san'ati, aksilogik yonashuv, talabalarda milliy musiqiy merosni shallantirish.

Ключевые слова: цифровая музыка, цифровое искусство, педагогическая технология, педагогический процесс, национальное музыкальное мышление, национальное музыкальное искусство, музыкальная педагогика, статусное искусство, аксиологический подход, парализующее национальное музыкальное наследие у студентов.

Key words: digital music, digital art, pedagogical technology, pedagogical process, national musical thinking, national musical art, music pedagogy, status art, axiological approach, paralyzing national musical heritage in students.

KIRISH

Raqamli musiqa asosida milliy musiqiy merosni o'rganish pedagogikasi-ijtimoiy hayotimizga kirib kelgan raqamli texnologiyalar asosida shakllangan yangi konsepsiyadir. Bu jarayon bugungi kunda misli ko'rilmagan keng qo'llanilayotgan badiiy pedagogika va raqamli texnologiyalarning integratsiyalashuvi natijasida shakllandi.

O'zbekistonda ham raqamli texnologiyalar pedagogikasi hozirda shiddat bilan rivojlanmoqda. Mamlakatimizda raqamli texnologiyalar asosida o'qitish borasida ham muayyan tajriba to'planmoqda. Biroq, bu asoslarning barchasini faqat raqamli musiqa pedagogikasidagi tub o'zgarishlarning in'ikosi sifatida qabul qilinishi kerak. Chunki, raqamli texnologiyalar bilan ishlash fanlarga faol integratsiya etilgani yo'q. Shuning uchun ham, ushbu faoliyat sohasini kelgusi

o'n yilliklar uchun rivojlantirishning asosiy istiqbollari aynan yangi axborot texnologiyalari bilan o'zaro hamkorlikda namoyon bo'ladi va shunga mos ravishda unga bag'ishlangan tadqiqotlar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Ushbu fikrni asoslash uchun musiqa ta'limining asosiy muammolariga, raqamli musiqaning o'ziga xos xususiyatlariga to'htalib o'tish, raqamli musiqa pedagogikasining mohiyati va tamoyillarini ochib berish, shuningdek, u bilan bog'liq bo'lgan o'qitish texnologiyasini tavsiflash kerak.

Bugungi kunning eng muhim tarbiyaviy vazifalari-bu faollik, iroda, qiziquvchanlik, tasavvur, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, o'zini o'zi boshqarish kabi yoshlarning kelajagini ahamiyatli jihatdan ta'minlab beradigan, rivojlanayotgan axborot jamiyati sharoitida ularning ijtimoiy o'zini o'zi anglash darajasini ta'minlab beradigan ijodiy fazilatlarni shakllantirishdan iborat. Bunday vazifa, oliy ta'limdagi barcha fanlar doirasida o'qitishda qo'yilsagina o'z natijasini beradi. Ammo, tan olish kerakki, bugungi kunda ta'lim amaliyoti, ayniqsa musiqa fanini o'qitish jarayoni bunday yechimdan uzoqroqdir.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODLAR

Milliy musiqiy merosni o'qitish jarayoni muhim va ko'plab imkoniyatlarga ega. Ayniqsa, dunyo miqyosida bugungi kunda musiqa va texnologiyaning integratsiyasi natijasida yangi sohalarning paydo bo'layotganligini inobatga olinsa. Ammo, fan bo'yicha kerakli bilim va malakalarni o'zlashtirish uchun oliy ta'lim o'quv rejasida ajratilgan vaqtning yetarli emasligi, fanning talabalar ijtimoiy hayotidagi imkoniyatlarini ham chegaralab qo'yadi.

G'arb mamlakatlarida, jumladan AQSH, Ispaniya, Avstria, Niderlandiyada o'z faoliyatini badiiy ta'limning ushbu sohasini rivojlantirish bilan bog'laydigan ko'plab tadqiqot markazlari va o'quv muassasalari mavjud.

Agar ilmiy fanlar bo'yicha o'quv faoliyatining maqsadi muayyan fan asoslarini o'zlashtirish bo'lsa, u holda o'quv-badiiy faoliyatning maqsadi – milliy musiqiy merosni, musiqiy asarlarini o'rganish, talqin qilish yoki idrok etishdir. Bu raqamli texnologiyalar asosida ijodiy ish yaratishni o'rgatishga ham taalluqlidir.

Ko'rinib turganidek, milliy musiqiy meros bugungi kundagi shaxs uchun juda muhim bo'lgan ijodiy fazilatlarni rivojlantirishda boshqalarga nisbatan shubhasiz afzalliklarga ega. Bunga biz ularning estetik va axloqiy rivojlanishidagi so'zsiz ustuvorligini ham qo'shishimiz kerak. Ammo, agar yosh avlod ijodini rivojlantirish bugungi kunda shunday muhim pedagogik vazifa bo'lsa va badiiy ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra uni hal qilishga, shu bilan birga bu avlodni axloqiy va estetik tarbiyasi muammosini hal qilishga qaratilgan bo'lsa, unda nima uchun bu ta'lim sohasi oliy ta'limda shunchalik "kamtarona" joy egallagan?

Agar biz buning "ichki" sabablarini izlasak, oliy ta'lim talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda musiqa pedagogikasining imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun to'siq - bu badiiy faoliyatning asosiy komponentlarini o'zlashtirishdagi qiyinchilik ekanligini ko'ramiz.

Ayniqsa, bu yechim raqamli san'atni o'rgatish jarayonlarida juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli san'at pedagogikasi - bu zamonaviy san'atning turlariga murojaat qilishga asoslangan badiiy ta'lim nazariyasi va amaliyoti bo'lib, uning mahsulotlari virtual muhitda kompyuter dasturi bilan interaktiv o'zaro ta'sirga asoslangan holda yaratilgan.

Raqamli san'atning ikki asosiy sifati - badiiy faoliyat sub'yektining virtualligi va ushbu faoliyatning interaktivligi - bu ta'lim sohasida fundamental ahamiyatga egadir. Virtuallik talabalarining badiiy harakatlarini tubdan murakkablashtirsa, interaktivlik ularning operasion mazmunini sezilarli darajada soddalashtiradi. Mazkur ta'lim sohasining ana shu ikki xususiyati uning ijodiy-tarkibiy qismini belgilab beradi.

Bu o'z ifodasini:

-talabalarda san'atning ma'lum bir turini ifodalash vositalari bilan ishlash malakalarini chuqur egallashlarida;

-yorqin, o'ziga xos badiiy tasvirlarni yaratish imkoniyatlarini ochishi, o'quv va badiiy faoliyatga qiziqishni oshirishga yordam berishida;

- musiqiy faoliyatning jabhasini kengaytirishda;

- fan bo'yicha bir emas, balki bir vaqtning o'zida bir nechta raqamli san'at turlari bilan tanishtirish, bu talabalarning tegishli badiiy qobiliyatlarini rivojlantirishni uyg'unlashtirishga yordam berishida;

- turli yoshdagi talabalar uchun samarali badiiy faoliyatning mavjudligi chegarasining sezilarli darajada yo'qotishda topadi.

Raqamli texnologiyalar bilan ishlashning yana bir muhim tomoni shundaki, san'at mahsulotini yaratishda raqamli texnologiyalarga murojaat qilinganda, har qanday yoshda uning asosida u yoki bu raqamli san'at yoki ularning majmuasini o'zlashtirish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Shu asnoda, raqamli san'atning asosiy xususiyatlari - virtuallik va interaktivlik–talabalarni ular bilan tanishtirish tamoyillarini belgilaydi.

Talabalarni raqamli san'atga jalb qilish bilan bog'liq yuqorida tavsiflangan pedagogik faoliyatning ko'plab tamoyillari va ko'rsatmalari raqamli badiiylikning didaktik tamoyilini tashkil qiladi. Bu san'atni o'rgatish, shuningdek shu sohaga oid bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida talabalarning badiiy madaniyati va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan, badiiy faoliyat turlarining xilma-xilligi va intensivligiga asoslangan holda, uning obrazli-semantik va moddiy-shakllantiruvchi tomonlarini birdek tushunish tamoyili sifatida belgilanadi.

Ko'rinib turibdiki, badiiy mahoratning didaktik tamoyili o'quv jarayonining yetakchisi sifatida bilimni rivojlantirishni emas, balki u yoki bu musiqiy asarlarni "obektivlashtirish-noobektivlashtirish"dagi talabaning badiiy faoliyatini qo'yadi. Bu sohadagi bilimlar, birinchi navbatda, badiiy ijod va idrokni rivojlantirish uchun zarurdir. Aynan shu yondashuv, o'zaro ekvivalent bo'lgan didaktik tamoyillar: badiiylik tamoyili va ilmiy ta'lim tamoyili o'rtasidagi tub farqni anglatadi.

Musiqani idrok etishga ilm me'yorlari bilan yondashish ham, badiiylikni ilmiy yondashuv orqali o'rganish ham muvaffaqiyat keltirmaydi – ularni o'ziga mos bo'lgan yondashuvlarda o'rganish lozim. Demak, ta'limning badiiylik tamoyili, eng avvalo, musiqa fanlariga taalluqlidir. Ammo o'quv jarayonini badiiy harakat bilan o'xshash xususiyatlarga ega deb hisoblasak, ko'rib chiqilayotgan tamoyil umumiy didaktik ma'noga ega bo'ladi.

Qayd etilganidek, badiiylik tamoyili talabalar tomonidan raqamli musiqani o'zlashtirishda umumlashtiruvchi ma'noga ega. Xususan, u talabalarning badiiy-ijodiy faoliyatiga oid zarur bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish vazifasini amalga oshiruvchi virtual muhitda ularning o'z harakatlarini majoziy va mazmunli anglashlariga erishish to'g'risidagi pedagogik munosabatlarni aks ettiradi.

Ushbu faoliyatning xilma-xilligi ko'p badiiy xarakterga ega ijodkorlik ta'lim tamoyili bilan ta'minlanadi. Uning intensivligi o'quv-badiiy-ijodiy faoliyatning namoyish etish vositalarini boyitish va badiiy ma'lumotlarni boshqarish uchun kompyuter dasturlaridan foydalanuvchining interfaol rolini oshirish tamoyillari bilan belgilanadi, chunki birinchisi murakkab ijodiy vazifalarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi ularni hal qilishga qiziqishni uyg'otadi.

Yana shuni qayd etish lozimki, zamonaviy jamiyatda eng keng tarqalgan va katta talabga ega raqamli musiqa mahsulotlari har doim ham badiiy ijodning yuqori mezonlariga javob bera olmaydi. Shuning uchun ham, ular o'quv va ijodiy faoliyatning asosiy qismini egallay olmaydi. Raqamli musiqani o'rgatishda tegishli an'anaviy san'at turining eng yuqori yutuqlariga e'tibor qaratish va shu asosda ijodiy faoliyatni tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta'limning badiiylik yo'nalishi hamda yuqorida keltirib o'tilgan pedagogik tamoyillar va munosabatlardan kelib chiqib, talabalarga raqamli musiqani o'zlashtirishlari uchun ta'lim usullari shakllantiriladi. Badiiylikning didaktik tamoyili ijodiy amaliyot va ma'lum bir raqamli musiqa nazariyasini o'rganishni birlashtiruvchi murakkab usulni asosiy usul sifatida ajratib ko'rsatishga imkon beradi.

Shunday qilib, bu tizimni milliy musiqiy merosni o'qitishda an'anaviy ta'limning muqobili emas, balki uning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirib, unga qo'shimcha bo'lib xizmat qiluvchi vosita sifatida qabul qilish mumkin.

Musiqa boshqa fanlardan qo'llaniladigan uslublar, tajriba, psixologik nuqtai nazar hamda kuzatish jihatidan farq qiladi. Milliy musiqiy meros fikrlash va idrok qilishni talab etadi. Musiqa nazariyasiga asoslanib, raqamli musiqa asarlarini estetik baholashda, xuddi boshqa ijod namunalari kabi, kuzatilishi kerak bo'lgan hodisalar yoki g'oyalar majmuiga e'tibor qaratish mumkin.

Musiqa intellektual munosabatni talab qiladi. Musiqa asari yangi ixtiro yoki atrofimizdagi olam va uning tarkibidagi tegishli ob'yektni baholashdir, garchi tuyg'ular ijod jarayonining bir qismi

PEDAGOGIKA

bo'lmasa ham ijodiy ishlar ko'pincha chuqur tuyg'u asosida vujudga keladi. Bu esa nafasatga oid ba'zi fikrlarni tushunishga imkon beradi. Qolaversa, tinglash davomida olinadigan rohat va qalb zavqi ham nafasatdir. Milliy musiqiy meros, jumladan raqamli san'at asarlari aql mashqi va hissiyotlardan kelib chiqadi. Shuning uchun ham, visual san'at namunalari nafasatni insonlarga yetkazishning eng asosiy vositasidir, chunki ijodiy ishga biror shaxs o'zining butun his-tuyg'ularni jamlaydi. Shu ma'noda, ijodkor tuyg'u kuchidan kelib chiqqan mukammal chiziqlar yaratishga qodirdir.

Agar badiiy asarning xususiyatlari shaklga asoslangan bo'lsa, demak hissiyot ham badiiy ifoda talab qilinadigan shakldir. Bu hissiyot jarayoni ohangdan g'oyaga, g'oyadan his-tuyg'uga o'tish formulasi bilan boshqariladi. Kuyni eshitish jarayonida hissiyot jarayoni emosional shaklgacha rivojlanadi. Yaxshi musiqa asari bizni uni qadrlashga va uni yaxshiroq hayotiy tuyg'uga aylantirishga undashi mumkin. Shunday qilib, musiqa baholovchisi estetik hissiyot va badiiy ifodani his eta olish sifatiga ega bo'lishi kerak.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham "buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini keng targ'ib qilish maqsadida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar qalamiga mansub 100 ta asarning xalqchil tarjimasini amalga oshirish, ular asosida ilmiy va ommabop risolalar yaratish, milliy madaniyatni xalqaro darajada ommalashtirishga qaratilgan tadbirlarni hududlarda o'tkazishni joriy etish" hamda "o'zbek xalqi madaniyati va san'atini rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan atoqli ijodkor ziyolilar yubileylarini munosib nishonlash, hayoti va faoliyatini keng targ'ib qilish, xotirasini abadiylashtirish" ga alohida e'tibor qaratilgan. Bu asosda ko'plab tashkiliy islohotlarni amalga oshirish ham boshlab yuborildi. Shu nuqtai nazardan talabalarda musiqa ta'limiga oid bilimlarini rivojlantirish, ularning milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarini oshirishning, bu boradagi pedagogik jarayonga innovatsion usullarini joriy etishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy pedagogika tamoyillari asosida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni rivojlantirish samaradorligini oshirishning zaruriy shartlaridan biri – mazkur jarayonni texnologik asosda tashkil etishdir. Ma'lum bir masalani o'rganish, uning nazariy asoslarini yaratish va shu asosda ta'lim modelini ishlab chiqish bilan birga ta'lim texnologiyasini ham yaratish talab etiladi. Ta'lim texnologiyasi ta'lim oluvchilarda ma'lum bir bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan ma'lum bir metodikani amalga oshirishga qaratilgan ta'lim texnikalarini o'z ichiga qamrab olgan tuzilmadir.

Musiqa ta'limida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon musiqiy madaniyat va o'zbek milliy musiqasiga qadriyatli munosabatni shakllantirishga qaratilmog'i lozim. Musiqa ta'limi va tarbiyasida tizimlilik, ilmiylik va davomiylik prinsipi har bir mashg'ulotlarda o'zining tuzilishi va mazmuni bilan ilmiy asosda tashkil topishi lozim. Musiqa haqidagi bilimlar doirasi, musiqa ta'limi va tarbiyasining asosiy omilidir. Unda insoniyat yaratgan musiqaga oid qoidalar, xulosalar, umumlashgan musiqiy tajribalar o'z aksini topgan. Ularni o'zlashtirish – musiqa amaliyoti yo'lida bilim va ko'nikmalar hosil qilish demakdir. Bu jarayonda aksiologik yondashuvning samaradorligi va ijtimoiy ahamiyati yuqori hisoblanadi. Chunki biror bir merosni asrashga doir bilimlarni shakllantirishda qadriyatli munosabatga asoslangan aksiologik yondauv muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

NATIJALAR

Aksiologik yondashuv asosida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni rivojlantirishda "Milliy musiqiy meros asoslari" modulini o'qitish va mazkur fanga doir bilim, dunyoqarash, yondashuv va ko'nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'limda "integratsiya" bu fanlar, o'quv predmentlari, bir o'quv predmetining bo'limlari, har xil o'quv predmetlarining mavzulari o'rtasidagi tabiiy o'zaro bog'lanishdir.

"Milliy musiqiy meros asoslari" modulini o'qitish va tahlil etish orqali talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilim va ko'nikmalar rivojlanadi. Mazkur jarayonda o'zbek milliy musiqasining tarbiyaviy ahamiyati ayniqsa, yanada yorqin namoyon bo'ladi. "Milliy musiqiy meros asoslari" modulini o'qitishda quyidagi fanlar bilan integratsiya qilinsa maqsadga muvofiq ravishda talabalarda milliy usiqiy merosga oid bilim va ko'nikmalar yanada yaxshi rivojlanadi deb o'ylaymiz.

Musiqqa ta'limi yo'nalishlarida o'tiladigan fanlar dasturining taqvim-mavzu rejasiga taklif etilayotgan mavzular

T/r	Fan nomi	Taklif etilgan mavzular nomi	Qisqacha tavsifi
1.	Umumiy pedagogika	Musiqqa ta'limi milliy musiqiy merosga qadriyatli munosabatni shakllantirish	Musiqqa ta'limi uchun alohida umumiy pedagogika fanini shakllantirish, uni musiqqa ta'limi yo'nalishi xususiyatlari bilan integratsiyalash asosida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni rivojlantirish va orqali ularda o'zbek musiqiy merosiga qadriyatli munosabatni shakllantirish mumkin bo'ladi.
2.	Vokal va milliy musiqqa	O'zbek milliy musiqiy merosini sayqallash vazifalari	Musiqqa tarixi orqali talabalarda milliy musiqiy merosni asrashning ijtimoiy ahamiyati, o'zbek milliy musiqasini kelajak avlodga yetkazish, uni davomli sayqallab borishning mas'uliyati tushuntiriladi.
3.	Musiqqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash	Milliy musiqiy merosni o'qitish texnologiyasi	Talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga va uning aqadriyatli munosabatni shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni texnologik loyihalash asosida, o'rganish bir muncha qiyin bo'lgan milliy musiqiy merosni o'rganish, bilishga doir ta'lim texnologiyalari o'rgatiladi.
4.	Falsafa	Axloqiy madaniyat va qadriyatlar. Milliy san'at va musiqqa aksiologik yondashuv va estetik tarbiya	Talabalarda falsafa fani orqali ijtimoiy jarayonlar va munosabatlarga qadriyatli munosabatni shakllantirish, bu jarayonda o'zbek milliy san'ati va madaniyati, musiqasiga qadriyatli munosabani qaror toptirish, uni e'zozlash, asrash va kelajak avlodlarga yetkazish mas'uliyatini shakllantirish, dunyoqarashini o'stirish mumkin bo'ladi.
5.	O'zbek xalq musiqqa ijodi	O'zbek milliy musiqasi va uni bardavomligini ta'minlash yo'llari	O'zbek milliy musiqasida, xususan maqom va an'anaviy ijrochilikka asoslangan milliy musiqiy merosni asliyatini saqlash, asrashga doir tashkiliy-o'quv faoliyatini yo'lga qo'yishning ijtimoiy zarurati o'rgatiladi.

Milliy musiqiy merosni asrashga va o'zbek musiqiy merosini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim jarayoni orqali talabalarda musiqiy madaniyatni shakllantirish va ularda o'zbek musiqiy qadriyatlariga aksiologik munosabatni shakllantirish mumkin bo'ladi. Oliy musiqqa ta'limida beriladigan bilimlar soddadan murakkabga qarab yo'naltirilgan bo'lmog'i darkor. Ushbu prinsipning buzilishi talabalarining o'quv materialini o'zlashtirishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ularning musiqqa madaniyati mashg'ulot(dars)lariga bo'lgan qiziqishlarini so'ndiradi. Musiqiy bilimlarni tushuntirishda musiqqa pedagogi, avvalo, o'tilgan mavzularga tayanmog'i lozim. Musiqqa savodi, jumladan, musiqiy

PEDAGOGIKA

bilimlarni o'zlashtirish jarayonida beriladigan bilimlar aniq tizimga solingan bo'lmog'i kerak. Yangi tushuncha va bilimlar avval o'zlashtirilgan bilimlarga asoslangan bo'lishi, asta-sekin kengaytirilib va chuqurlashtirib borilishi lozim. Bunda oddiydan murakkabga va chuqurroqqa qarab borgan holda o'z didimizni mumtoz musiqaning eng yaxshi namunalari, zamonaviy kompozitorlarning eng yaxshi asarlari asosida tarbiyalashimiz kerak.

Talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim texnologiyasi aksiologik yondashuvning konseptual asoslariga tayangan holda loyihalashtirilib, maqsadga yo'naltirilgan, tizimli tavsifga ega quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oldi: analitik – talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni rivojlantirishga doir bilim va ko'nikmalarini oshirish va ularni baholash; tashkiliy-tayyorlov – texnologiyani amalga oshirish istiqbolini aniqlashtirish, pedagogik jarayon shakl, metod va vositalarini tanlash, professor-o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish; faoliyatga doir – talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni rivojlantirish texnologiyasini bosqichma-bosqich amalga oshirish; monitoring – talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni rivojlantirish dinamikasini baholash, zaruriyat yuzaga kelganda pedagogik jarayonga tuzatishlar kiritish; natijaviy–natijalarni baholash va ta'limiy-tarbiyaviy ishlarning istiqboldagi vazifalarini aniqlashtirish.

Musiqaning tinglash musiqasi darsida eng mas'uliyatli va qiziqarli bosqich bo'lib, uning talabalar uchun qanchalik darajada qiziqarli bo'lishi darsni olib borayotgan o'qituvchining shu darsga nisbatan qanchalik mas'uliyat bilan yondashayotganligiga bog'liq bo'ldi. Musiqaning tinglashda tinglangan musiqani bilib olish, aniqlash, boshqa tinglangan musiqalar bilan taqqoslash uchun, ba'zan tashqari musiqaning ifoda vositalarini aniqlab olish, uning ijrochilari tarkibi haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lish uchun musiqiy xotiraning juda katta o'rni bor. Chunki agar musiqiy xotiramiz bo'lmaganida biz yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarni baxolay olmas edik.

Milliy musiqiy merosni o'rganish musiqasi tarbiyasini tashkil qilishning asosiy shakli bo'lib hisoblanadi. Musiqasi bo'yicha fakultativ mashg'ulotlar, musiqasi tugaraklari ish yuritgani bilan musiqasi darsi hamma talabalarni qamrab olgani uchun o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Dars talabalarning turli faoliyatlarini o'z ichiga oladi. Bular: ko'ylash, musiqasi ritmik harakatlar, musiqasi tinglash, milliy musiqasi merosni o'rganish bo'lib, bir birini to'ldirib va boyitib boradi. Qo'shiqni o'rganish yoki musiqasi asarini tinglab uni tushunib olish uchun bir nechta dars davomida bu faoliyat amalga oshiriladi.

Musiqasi darslari uchun o'ziga xos emosional holatlar zarur, chunki musiqasi bu hissiyotlar tilidir. U talabalarni hayajonlantiradi, ularda ma'lum kayfiyat va kechinmalar hosil qiladi. Talabalarning diqqatini musiqasi yangrashiga jalb qilish ularni tasavvurlarini rivojlantirish orqali ularni musiqasi obrazlarni chuqur tushunishga, ularni ifodaliligini his qilishga yordam beradi. Umumiy belgilarga qaramasdan, har bir dars uning mazmuniga yuklangan badiiy va ta'limiy vazifalarga ko'ra o'ziga xos va betakroridir. Ma'lumki, musiqasi darsini talab darajasida tashkil etish muvaffaqiyatlari sari harakat qilish hisoblanadi. Unda darsning maqsadlari, mazmuni va tuzilishi, vosita va ish usullarini aniq o'ylab chiqilgan bo'lishi kerak, busiz ijobiy natijalarni qo'lga kiritish qiyin. Darsga tayyorlanish o'qituvchining mahoratiga malaka va bilimlariga bog'liq bo'lib, shu orqali musiqasi materialini va uni qo'llashning tarbiyaviy, ta'limiy va rivojlantiruvchi imkoniyatlari ro'yobga chiqarish uchun musiqasi materialini tanlashda talabalarning musiqasi tayyorgarlik darajalarini ko'zda tutish zarur.

Dars uchun olinadigan qo'shiqlar o'z xarakteri, kayfiyati, ritm usullari jihatdan turlicha bo'ladi. Shuning uchun darsning yaxlitligini ta'minlashda uning tuzilishiga, ya'ni turli musiqasi faoliyatlarining ketma ketligiga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq. Talabalarning darsda qay darajada qiziqayotganligi yoki zerikarli bo'lishi darsdagi ish uslublarining o'zgartirilishini talab qiladi. Bu ko'p hollarda talabalarning xarakter xususiyatlari va musiqasi darsiga munosabatida kurinib turadi.

Darsning shaklini ongida tasavvur etib o'qituvchi bir musiqasi materialidan boshqasiga o'tishda hissiy kayfiyatni saqlashga talabalar diqqatini doimiy suratda asosiy holatlarga qaratishga harakat qiladi. Darsning tuzilishini tasavvur qilishda har bir talabaning jismoniy, aqliy va hissiy holatlarini hisobga olish lozim. O'rganish qiyinroq bo'lgan qo'shiqlarni bir necha dars davomida o'rganish maqul, chunki bir ikki soatda talabalarni charchatib bo'lsada, qo'shiqni o'rganish ularda qiziqishning pasayishiga zerikishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari mazkur darsning dars jadvalidangi o'rniga ham e'tiborni qaratish kerak.

Darsda talabalarning musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan kurgazmali vositalardan foydalanish muhimdir. Nota tablislari orqali nota bilan ko'ylash malakalari shakllanadi, qo'shiq, qo'shiq parchalari, kuylarni tez va oson o'rganadi. Kurgazmalarda tasvirlangan nota yozuvlari ularni tiniq intonatsiya qilish va eslab qolishga yordam beradi.

Darsda o'qitishning texnik va kurgazmali vositalarini qo'llash chuqur amalga oshirilishi hamda asosiy maqsadga aylanmasligi kerak. Uni chuqur o'ylab qo'llash va me'yorida ishlatish talabalarni musiqiy tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini yechishga yordam beradi. Musiqa darsiga tayyorlanish va uni o'tkazish – o'qituvchidan ijodiy yondashuv, bilim, malaka va ko'nikmalarni faol qo'llash hamda kasbiy tajribani talab qiladi. O'qituvchi ijodining natijasi sifatida musiqa darsi talabalarning ichki dunyosiga g'oyaviy-emosional ta'sir qiladi. Musiqaga qiziqish uyg'otadi, u bilan muomala qilishga ehtiyoj paydo qiladi.

Talabalarning milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlari musiqiy faoliyat jarayonida shakllanadi. Qo'shiq ko'ylash, musiqa tinglash, ritmika bilan shug'ullanish orqali talabalar milliy musiqa asarlari bilan tanishadilar, ularni anglab oladilar, ifodali ijro va emosional anglangan idrok qilish uchun ma'lum bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirib oladilar. Shuning uchun ularning faoliyati darsda qanchalik rang-barang va faol bo'lsa, shunchalik ularda musiqiy va ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi, qiziqishlar, did va ehtiyojlar shakllanadi. Shu bilan birga, musiqiy faoliyat turlarining ko'pincha o'z-o'zidan darsda musiqiy tarbiya masalalarini yechishning muvaffaqiyatini ta'minlamaydi.

Darsga yaxlit yondashuv o'qituvchining zarur metodik tayyorgarligi asosida amalga oshiriladi. U talabalarning hamma musiqiy faoliyatlarini nazarda tutadi, bu orqali musiqiy qobiliyatlar bir-biriga bog'liq holda rivojlantiriladi, faoliyatning bir ko'rinishi boshqasini boyitadi va natijada har bir dars yaxlit musiqiy tarbiya jarayoning ajralmas bug'iniga aylanadi. Dars orqali talabalarda musiqa asarlarini emosional anglangan holda idrok qilishni shakllantirish muhimdir.

Shuningdek, raqamli texnologiyarni tasniflashda uning xususiyatlarini ham inobatga olish zarur. Raqamli texnologiyalar ta'rifi barcha elektron vositalarni, avtomatik tizimlarni, texnologik qurilmalarni va ma'lumotlarni ishlab chiqaradigan yoki saqlaydigan resurslarni o'z ichiga oladi. Analog va raqamli texnologiyalarning farqi shundaki, analog texnologiyalarda ma'lumotlar ko'p amplitudali elektr ritmlariga aylanadi, raqamli texnologiyalarda esa ma'lumotlar ikki raqam, ya'ni 0 va 1 dan iborat tizimga aylantiriladi.

Ta'limning texnik vositalarini quyidagi turlarga ajratish mumkin: axborot; aralash (kombinatsion); trenajor; bilimlarni nazorat qilish vositalari; audiovizual vositalar.

Bahs – munozara darslari – mavzuga oid bilimlarni tahlil qilish, mustahkamlashda juda yaxshi samara beradi. Bu darsni - musiqa tarixi, musiqa asarlari tahlili, musiqa savodiga bog'lab tashkil qilish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Bahs-munozara darslari talabalarning avval egallagan bilimlariga tayangan holda, "bu cholg'ularni eslang, bu kopozitorlar nomini ayting", musiqani kim yaratadi, kim ijro etadi, kim tinglaydi, nota cho'zimplari qanday nomlanadi? qanday yoziladi va hokoza mavzularda tashkil etish mumkin.

Bahs munozara darslari boshqa darslardan shu jihati bilan farq qiladiki, bu darslarda biror bir masala yuzasidan tortishuv bo'ladi. O'qituvchi va talabalar o'z fikrlari bilan o'rtoqlashadilar. Bu darslardagi bahs-munozara talabalarni hozirjavoblikka, mustaqil fikrlashga, masalalar yechimiga ijodiy yondashishga, fikrlarini ifoda etish ko'nikmalarini rivojlanishiga ko'maklashadi.

Bahs-munozara darslari pedagogik jihatdan ham katta ahamiyatga ega. U talabalarni estetik tuyg'ularini tarbiyalashda ham muhim vositalardan hisoblanadi. Munozara mavzusini uning o'quv dasturi mazmuni va talablariga, xususan darslik mavzulari bo'yicha savol va topshiriqlarga moslab tuzish bu o'qituvchining pedagogik yondashuviga ko'ra tanlanadi. Agar talabalarning hohish istaklari ham hisobga olinsa, yoki dastur bo'yicha talabalar egallashi lozim bo'lgan bilim va malakalar mezonidan kelib chiqilsa yanada yaxshi bo'ladi. Bunda:

- talabalar fikrlarini bir tizimga solib turish;
- faol ishtirok etganlarni rag'batlantirish yaxshi samara beradi.

Texnologiya ikki qismdan tashqil topgan: mazmunli-prosessual va tashkiliy-pedagogik.

Texnologiyaning mazmuni o'zida kognitiv – amaliy faoliyat – refleksiya birligi va ana shu bosqichlarni har birida o'ziga xos tarzda namoyon bo'luvchi milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni rivojlanish darajalari (anglash, tushunish, munosabat va fikrlash)ni aks ettiradi.

Texnologiyaning tashkiliy-pedagogik komponentini aniqlashtirish maqsadida maxsus metodik karta ishlab chiqildi (2-jadvalga qarang).

Texnologiyani amaliyotga tatbiq etishning metodik kartasi

Birinci shart-sharoit: Talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni rivojlantirishda musiqa ta'limi fanlari va qadriyatshunoslik fanlari integratsiyalashuvini ta'minlash	
Birinci tashkiliy-pedagogik shart-sharoitni amalga oshirish metodikasi	
Maqsad	Talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni rivojlantirish va unga qadriyatli munosabatni tarkib toptirish
Mazmun	Aksiologik fanlar turkumiga kiruvchi hamda "Milliy musiqiy meros asoslari" modulli kurs dasturi
Shakl, metod va vositalari	Tashkiliy shakllari: davra suhbatlari, debatlar, seminar, o'yinlar. Metodlari: munozara, mashq, ishbilarmonlik o'yini va interfaol metodlar. Vositalari: tarqatma materiallar, elektron ta'lim resurslari.
Natija	Talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni rivojlantirish asosida o'zbek musiqiy merosiga qadriyatli munosabatni shakllantirish, o'zbek musiqasiga doir bilim va ko'nikmalarni rivojlantiriladi.
Ikkinchi shart-sharoit: vaziyatlarni analiz qilish va musiqiy bilimlarni oshirish orqali talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga refleksiv nuqtai nazarni qaror toptirish	
Ikkinchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitni amalga oshirish metodikasi	
Maqsad	Talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni rivojlantirish bo'yicha refleksiv nuqtai nazarni qaror toptirish
Mazmun	Aksiologik fanlar turkumiga kiruvchi hamda "Milliy musiqiy meros asoslari" modulli kurs dasturi
Shakl, metod va vositalari	Tashkiliy shakllari: seminar, "Milliy musiqiy merosni asrash nima uchun kerak" mavzusidagi esse, vaziyatli o'yin. Metodlari: refleksiv usullar: vaziyatlar tahlili, mashq, g'oyalarni umumlashtirish metodi, Vositalari: elektron ta'lim resurslari, milliy musiqiy madaniyatni rivojlantirishga oid amaliy-tashkiliy jarayonlar.
Natija	Talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni rivojlantirish bo'yicha refleksiv nuqtai nazarning shakllanganlik darajasi ortadi.
Uchinchi shart-sharoit: o'quv loyihalarini tayyorlash jarayonida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni rivojlantirish	
Uchinchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitni amalga oshirish metodikasi	
Maqsad	Talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni rivojlantirish bo'yicha sub'yektiv tajribani shakllantirish
Mazmun	Aksiologik fanlar turkumiga kiruvchi hamda "Milliy musiqiy meros asoslari" modulli kurs dasturi
Shakl, metod va vositalari	Tashkiliy shakllari: mualliflik loyihasi himoyasi, multimedia-leksiya, seminar, konsultatsiya, monitoring. Metodlari: o'quv loyihasi, demonstratsiya, kuzatish, tushuntirish, tizimlashtirish, muammoli va tadqiqotchilikka doir metodlar, esse. Vositalari: proyeksion material, tarqatma material (loyihani himoya qilish jarayonida), Internet, elektron ta'lim resurslari.
Natija	Talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni rivojlantirish bo'yicha sub'yektiv tajriba ortadi va kompetensiyalar tarkib topadi.

Oliy ta'limda milliy musiqiy merosni asrashga doir alohida fan o'tilmasligini hisobga olgan holda, tanlov fan sifatida "Milliy musiqiy meros asoslari" modulli kurs dasturi taqvim-mavzu rejasi ishlab chiqildi (3-jadvalga qarang).

“Milliy musiqiy meros aksiologiyasi” maxsus kurs dasturi taqvim-mavzu rejasi

	Modullarning nomlanishi va mavzulari	Umumiy soatlar	Auditoriya soatlari	
			Nazariy	Amaliy
1.	Milliy musiqiy meros va uning yo‘nalishlari va turlari	4	2	2
2.	O‘zbek milliy musiqasi va uni shakllanish evolyusiyasi	4	2	2
3.	Milliy musiqaga qadriyatli munosabat va aksiologik yondashuv	4	2	2
4.	Milliy musiqiy merosni aksiologik bilish va anglash jarayoni	4	2	2
5.	Musiqqa ta’limida milliy musiqani o‘qitish metodikasi	4	2	2
6.	Milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni rivojlantirishda innovatsiyalar	4	2	2
7.	Milliy musiqiy merosni asrashga doir istiqboldagi ta’limiy-tarbiyaviy vazifalar	6	2	4
Jami:		30	14	16

XULOSA

Aksiologik yondashuv asosida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni rivojlantirish maxsus kursning amaliy mashg‘ulotlarida qo‘llash bilan bog‘liq o‘quv loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga jalb etish yaxshi samara beradi. O‘quv loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni oshirish mumkin bo‘ladi.

Buning uchun esa, musiqa ta’limida to‘g‘ri va samarali pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ham talab etiladi. Pedagogik texnologiyalarning tarkibiy tuzilishi – konseptual asos, mazmuniy qism (o‘qitish maqsadi, o‘quv-metodikasi mazmuni) hamda prosessual qismlardan (o‘quv jarayonini tashkillash, talabalarda o‘quv faoliyatlarining metod va shakllari, o‘qituvchi faoliyatining metod va shakllari, o‘qitish natijalarini baholash va boshq.) iborat.

Musiqqa ta’limida pedagogik jarayonning konseptual asosi bo‘lib an’anaviy shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatli yondashuv xizmat qiladi. Faoliyatli yondashuv musiqa ta’limi faoliyatlarining ijrochilik turlari: qo‘shiq kuylash, cholg‘u ijrochiligi hamda musiqa tarixi va nazariyasi va h.k. xususiyatlari bilan belgilanadi. Tanlab olingan pedagogik yondashuv pedagogik texnologiyaning maqsadlari, mazmuni hamda usul, vosita, metod va shakllarini belgilab beradi.

Talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni rivojlantirishda qulay shart-sharoit sifatida quyidagilar tavsiya etiladi:

- talabalarining milliy musiqiy didini tarbiyalashga qaratilgan darslarni maqsadga yo‘naltirish;
- musiqa darslarini aniq tuzilishi va o‘tilayotgan materialga muvofiqqligini ta’minlash;
- o‘rgatiladigan materialni to‘g‘ri tanlash (talabaning ijodiy imkoniyatini hisobga olgan holda) va ta’limga mos usul va uslublarni tanlash;
- musiqa pedagogining bolalarga milliy musiqiy tarbiya berishida uzviylik va tizimli-likka erishish;
- butun dars (mashg‘ulot)lar davomida musiqa pedagogi tomonidan ma’lum bir psixologik muhit yaratish;
- milliy musiqa asosida o‘zbek musiqiy merosiga qadriyatli munosabatni hosil qilish;
- musiqa pedagogining estetik, metodik, psixologik va pedagogik jihatdan mashg‘ulotga tayyor bo‘lishini ta’minlash. Ayni vaqtda shuni ta’kidlash joizki, talaba shaxsini shakllantirishda amal qiladigan ilmiy asoslangan mazmun va metodika, shakl va usullar muayyan pedagogik prinsiplarga amal qilishi lozim. Bu prinsiplar ta’lim-tarbiyaning davr talabiga, ya’ni zamonaviy ijtimoiy buyurtmaga mosligi, pedagogik jarayonda ob’yektiv-sub’yektiv jarayonlarning uyg‘unligi, ta’lim-tarbiyada maqsad, mazmun, metod va vositalarning bir-biri bilan bog‘liqligi kabi pedagogikaning umumiy qonuniyatlariga asoslanadi.

PEDAGOGIKA

Talabalarning musiqiy tafakkuri va idrokini yuksaltirishning axborot texnologiyalari yana bir vositadir. Milliy qadriyatlar, ayniqsa mumtoz musiqa asosida oliy musiqa ta'limida tahsil olayotgan bakalavrlarning aqliy imkoniyatlarini, ularda musiqiy tafakkur va idrokni yuksaltirish uchun barcha mavjud ish usullarini qo'llash taqozo etilmoqda. Shu jumladan, hozirgi sharoitda ta'lim sohasiga ilg'or axborot va pedagogik texnologiyalarning jadal kirib kelayotganligi sababli, maqomlarning jozibali, maftunkor, o'ziga jalb etuvchi, tinglovchining hissiyotlariga ta'sir etib, unda turli kayfiyat va kechinmalarni uyg'otuvchi kuchini bakalavrlarga ushbu vositalar orqali yaqqol ko'rsatish, ularda mumtoz musiqamizga nisbatan mehr-muhabbatni uyg'otish o'ta muhimdir.

Musiqa ta'limi tizimida talabalar bilan ishlab, ularda milliy musiqiy merosga doir bilimlar, musiqiy tafakkur va idrokni yuksaltirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish mumkin. Yaqin vaqtlargacha o'quv mashg'ulotlarida qo'llanib kelingan audio va videotexnika vositalari faqatgina berilgan musiqiy material: maqom sho'balari hamda turli musiqa janrlariga xos asarlarni eshittirish va ko'rsatish imkoniga ega, xolos. Biroq, bugungi kunda ushbu vositalar izlanuvchan o'qituvchi va talabalarni qoniqtirmaydi.

Bugungi kun talabi darajasida yondashib, oliy musiqa ta'limida musiqiy fanlarni amaliy mashg'ulotini o'qitish jarayonida talabalar bilan ishlash faoliyatini olib ko'radigan bo'lsak, fan doirasida berilgan maqom asarining nota matnini tahliliy o'rganish, notalarni nomlari bilan aniq intonatsiyada kuylash, asarda uchraydigan turli intervallar, dinamika va ijro sur'atini aniq tasavvur etgan holda kuylash, shuningdek, notalarni solfedjio qilib kuylash talab etiladi. Bundan tashqari, asarda uchraydigan murakkab parchalarni alohida mashq qilish, asarlar va ularning parchalarini tahliliy tinglab o'z xulosasini chiqarish vazifasi qo'yiladi. Bu ko'pqirrali badiiy musiqiy faoliyatni yuqori saviyada bajarish uchun nota ijrosini kuzatish, tinglash va ko'rish, ya'ni audiovizual idrok etish maqsadga muvofiq.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, talabalarda milliy musiqiy merosni asrashda musiqiy asarning ichki intonatsion xususiyatini his eta olishga turtki bo'luvchi metod va texnologiyalarni qo'llanishi zamon talabi bo'lib qolmoqda. Albatta talabalarning shaxsiy iqtidor va qobiliyatlarini, asar tanlash va ularni amaliy ijro etish, eshinish va tinglash kabi hususiyatlarini inobatga olinadi. Bunda xususiy texnologiya darajasidagi pedagogik texnologiyalar musiqiy ta'lim prinsiplari talablariga mos keladi va ular talaba-yoshlarda maqsadga yo'naltirilgan ijodiy musiqiy tafakkurni jadal rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nimkulrat, N., Niedderer, K., & Evans, M. A. (2015). On Understanding Expertise, Connoisseurship, and Experiential Knowledge in Professional Practice. *Journal of Research Practice*, 11(2).
2. Nimkulrat, N., Niedderer, K., & Evans, M. A. (2015). On Understanding Expertise, Connoisseurship, and Experiential Knowledge in Professional Practice. *Journal of Research Practice*, 11(2).
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти 2022 йил 28 январь «2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сон Фармни. // <https://lex.uz/docs/5841063>
4. Mansurova N. R. Zamonaviy oliy ta'limda musiqiy aksiologik yondashuvdan foydalanishning pedagogik asoslar // FarDU. Ilmiy xabarlar. – 2024.- № 3. B-52-59.
5. Xodjayev B. X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. "Sano-standart" nashriyoti. T.: -2017. B-104.
6. Tojiyev M, Ziyamammedov B, O'ralova M. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VA PEDAGOGIK MAHORAT fanining o'quv mashg'ulotlarining loyihalsh. O'quv qo'llanma. "Tafakkur- Bo'stoni" nashriyoti. T.: 2012. B-137.